

## O'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO'RAXON SULTONOV

**Muyassarxon Achildiyeva**

*Farg'ona davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti "Musiqqa ta'limi" kafedrasini o'qituvchisi*

**Muhammadjonova Mohinur**

*Farg'ona davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti "Musiqqa ta'limi" yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hofizlik va bastakorlik san'atining sarbadorlaridan biri, maftunkor ovoz sohibi, ijrochilikda o'ziga xos maktab yaratgan san'atkor Jo'raxon Sultonov haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *hofiz, tembr, tanbur, maqom, patnisaki ashula, askiya, yalla, katta ashula, she'riyat, vazn, badihago'ylik.*

Keng diapazon, kuchli, yumshoq xirildoq va dardli ovoz sohibi, xushovoz honanda, xalq hofizi, ajoyib bastakor va sozanda, muosharat ilmining olimu fuzalosi, hammisha askiya bellashuvlarida birinchilardan bo'lgan so'z zargari Jo'raxon Sultonov 1903-yilda Marg'ilon shahrining "Poshsho Iskandar" mahallasida tavallud topdi. Uning otasi Sultonboy oshpaz Xudoynazarov tabiatan dilkash, she'riyat va musiqadan xabardor odam bo'lgan. Onasi Saodatxon aya ham ziyoli oiladan bo'lgan.<sup>1</sup> O'sha davrda Marg'ildagi choyxonalar madaniyat, ma'rifat o'chog'i vazifasini ham bajarar edi. Sultonboy hoji o'g'li Jo'raxonni choyxonaga olib kelib Yusufjon qiziqqa shogirdlikka topshiradi. Natijada Madali hofizdan tanbur chalib yalla aytish yo'llarini, Bolta hofiz bilan Mamatbobo hofizdan patnisaki ashula yo'llarini o'rgana boshladi. "Shafolat", "Dargohingga kelibman", "Xayr-ul bashar", "Shoyad", "Yovvoyi Chorgoh" singari patnisaka ashulalarni birga ijro eta boshladi. Bu yerda shuni aytish joizki, Jo'raxon Sultonov ustoz Mamatbobo hofiz bilan, ashulachilikda yovvoyi yo'llarni kashf etgan hofizdir. Yana ular jo'rovoz bo'lib aytish uslubini yaratishgan. Sultonov xaqi orasida "katta ashula piri" nomini olgan, shuningdek, yallalar ustasi, askiyachi sifatida ham tanilgan. Jo'raxon Sultonov o'z faoliyati jarayonida o'zbek ustozona musiqasi ijodiyoti va ijrochiligi ravnaqiga munosib hissa qo'shgan o'zbek zabardast san'atkorlarining yorqin namoyondasidir. Farg'ona vodiysi hofizlik maktabi haqida so'z ketganda, birinchilardan bo'lib Jo'raxon Sultonovning muborak nomi tilga olinadi. Avvalo Jo'raxon Sultonov "ustoz kull" ya'ni ustozlar ustoz maqomiga erishgan hofiz edilar. Milliy san'atda o'z yo'li, o'z jiddiy uslubini, o'ziga xos mahurat maktabini yaratgan edi. Hofizlik uning yashash tarzi, san'atkorlik maqomini belgilaydigan asosiy mezon edi.

<sup>1</sup> Jo'raxon Sultonov: "Ko'kardi chaman, gulzorim qani?". Sultonali Mannopov, Nabijon Soliyev. T 2019

O'z otash nafasi bilan boshqalarni maftun eta olish iste'dodiga ega bo'lgani uchun hofizga "qoplon" tahallusi berilgan. Jo'raxon Sultonov tajribali bastakor edilar. Ijodiy repertuarinig katta qismini o'zi bastalagan kuylar bilan ijro etganlar. Jo'raxon Sultonov usta sozanda, cholg'uchi edilar. Tanbur, dutor singari milliy cholg'ularni mahorat bilan chala olar, bu borada tom ma'noda oliy maqomga yetishgan edilar. Jo'raxon Sultonov ijro uslubi Farg'ona vodiysining o'ziga xos ijro xususiyatlari bilan sug'orilgan bo'lib, yangicha xarakterdagi talqin o'z ifodasini topadi. Mumtoz ashulalarni yovvoyi uslubda (usul erkinligida) ijro etish Jo'raxon Sultonov shaxsiy talqinining xos jihatlaridan biridir. Xonanda uslubining xarakterli jihatlari uning ijodiga mansub asarlarida yaqqol ifodasini topadi. Ijodkor bastakorlik faoliyatida ko'proq, ustozona musiqaning murakkab hisoblangan talqin, nasr, savt yo'llarida o'ziga xos erkin rivoj topadigan asarlar yaratgan.

Mumtoz usullar asosida yaratgan asarlarining xarakterli tomonlarini xonandaning ijodiga mansub "Bo'lmasa", "Guluzorim qani", "Bir kelsun", "Naylayin", "Oh kim", kabi asarlari misolida ko'rish mumkin. Aytish joizki, xonanda o'z uslubini ifoda etishda maqom sho'balarning tuzilish tarkibi qiyofasidan kelib chiqib, katta ashula kuy rivoji xususiyatlariga asoslanib, o'ziga xos ashula yo'lini shakllantiradi.

Jo'raxon Sultonovning ijro uslubiga xos bo'lgan jixatlardan biri bu aniqlik, shiddat va maqsadni tez belgilab olishdir. Ijro jarayonida so'zlarning burro, ifodali sayqal va jilolar bilan bezab kuylagan. Bunda albatta, xonandaning adabiy merosni, she'riyatning ichki qonuniyatlarini tushunib, munosib idroklashi ham muhimdir. Jo'raxon Sultonov tarix, adabiyot, madaniy meros masalasiga qattiq qiziqar, yoshlarni ham o'qib-o'rganishga chorlardir. Xonanda talqinida musiqa san'ati namunalarining turli janrlari o'ziga xos tarkibda ifodasini topgan. U avvalo, har bir asarning janr xususiyatlari asosiga katta e'tibor bilan yondashadi.

Jo'raxon Sultonovning ijro uslubini ahamiyatli bo'lgan uch talqin jarayoni bilan bog'lash mumkin. Bular erkin ijro, badihago'ylik va ma'lum usul va vaznga asoslangan ijrolar. Har bir asarga o'ziga xos yangicha talqin bilan yondashishi xonandaning ijro uslubi xususiyatlaridan biridir. Ayniqsa bu jarayon maqom yo'llaridagi "Yovvoyi Chorgoh", "Dugoh Husayniy", "Hosilim", "Savti suvora", "Sodirxon Ushshog'li" kabi asarlar ijrosida yaqqol namoyon bo'ladi. Kuchli va baland ovozga ega bo'lgan Jo'raxon Sultonovning ijrosi katta xayajonli talqin, aniq va sersadoligi, shiddati bilan alohida ajralib turadi.<sup>2</sup>

Jo'raxon Sultonov o'z davrining so'zga chechan askiyachisi ham edilar. O'tgan asrning 70-yillariga qadar hukm surib kelgan askiya san'ati taraqqiyotini Jo'raxon akasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yusufjon qiziq, Oxun qiziq, Sulaymon qori, Usmon qiziq va respublikamizning, shuningdek, qo'shni respublikalarning butun Markaziy Osiyoga taniqli mashhur qiziqchilari bilan doimiy muloqot va xamkorlik

---

<sup>2</sup> Xofizlik san'ati. (O'quv uslubiy qo'llanma) "Musiqqa" nashriyoti. T 2007

Jo'raxon hofizni zakiy so'z zargari va maqom san'atkori darajasiga olib chiqqan edi. Madrasa ko'rgan olimu fozil inson ham edilar. Qur'oni karimni hatm qilgan, yuzlab tarixiy-ilmiy kitoblarni mutolaa qilgan va kamyob kitoblaru qo'lyozmalarni yig'ib, noyob kutubxona barpo etgan ma'rifatparvar, kitobsevar inson edilar. Turli diniy, ilmiy mavzularda ma'ruza qila olar, chigal masalalarni yechishda ilmiy manbalarga suyangan holda jo'yali asoslar topa bilar, natijada ishtibohli savollarga hojat qolmas edi. Shular bilan bir qatorda, uni ajoyib rahbar, tarixchi, yirik tadqiqotchi, san'atshunos olim ekanligini ham ilm-fan va san'at ahli ko'p marta e'tirof etgan edi.

1918-yilda "Sanoyi nafisa" tuzilib uning haqiqiy ijodiy faoliyati boshlanadi. 1926-yilda Muhiddin Qori Yoqubov rahbarligida o'zbek davlat etnografik ansambli tashkil etildi. Yusufjon, Shakarjon, Usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Ahmad Umirzoqov, Abduqodir Ismoilovlarni va qator nomdor san'atkorlar qatori Jo'raxon Sultonov ham taklif qilinadi. Bu ansambl bilan birga Jo'raxon Sultonov ham Moskvaga jo'nab ketdi. Ular Sankt-Peterburg, Qozon, Astraxan va Bokuda o'zlarining sevimli kompozitsiyalarini ijro etishga muvaffaq bo'lishdi. Safardan keyin unga ijodiy muvaffaqiyat keldi. 1928-yilda esa Marg'ilonda tashkil etilgan musiqali drama teatriga direktor etib tayinlandi. Ma'murjon Uzoqov, Boborahim Mirzayev, Zokirjon Ergashev singari yosh san'atkorlarga ustozlik qildi. Shogirdi Ma'murjon Uzoqov bilan jo'rovzlikda ijod qilib, o'ziga xos talqin yo'lini yaratdilar. Bu hamkorlik 30 yilga yaqin davom etdi.<sup>3</sup>

1930-yilda respublikamiz poytaxti Toshkentga ko'chirilgach, viloyatlardagi taniqli san'atkorlarni markazga to'plab, san'atni yanada jonlantirish uchun harakat boshlanib ketdi. Yo'ldosh ota Oxunboboyevning taklifi bilan Jo'raxon Sultonov 1932-yilda Toshkentga ko'chib keladi. O'zbek musiqali teatrida, keyinchilik respublika radiosida ishlaydi. Toshkentga ko'chib kelib, yakka o'zi hujrada yashab turgan Jo'raxon Sultonov bir necha yillar mobaynida olimlar, shoir va adiblar, san'atkorlar, aktyor va artistlar, ijodiy tashkilot xodimlari, jurnalistlar va matbaa xodimlari bilan yaqindan tanishib, yuzlab do'st-yorlar, oshna-og'aynilar orttirdi. Hofiz, ayniqsa, G'afur G'ulom, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Chustiy, Habibiy, Xislat, Miskin, Tavallo singari ajoyib shoirlar bilan hamsuhbat bo'lib, bu suhbatlardan olam-olam zavq-shavq oldi. She'riyat, adabiyot olami kabi san'at olami ham cheksiz-chegarasiz bir hayratlar dunyosi ekanini tushundi. Yana shuni tushundiki, san'atkor yakkanishin alfozda o'z yog'iga o'zi qovurilib yotavermay, til-adabiyot ahli bilan, shuningdek, turli soha vakillari bilan hamqadam-u hamfikir bo'lsagina elga manzur asarlar yaratilishi mumkin ekan.

1936-1939-yillarda O'zbekiston davlat filarmoniyasida, 1940-1950-yillarda Muqimiy teatrida, 1950-1958-yillarda o'zbek xalq sahnasida qo'shiqlar ijro etgan. 1958-yildan umrining oxirigacha "Maqom" radiosida ansamblda kuyladi. 1937-yilda

<sup>3</sup> Jo'raxon Sultonov: "Ko'kardi chaman, gulzorim qani?". Sultonali Mannopov, Nabijon Soliyev. T 2019

Moskvada o'tgan o'zbek dekadasi, keyinchalik katta Farg'ona kanali qurilishi hofizga chinakam shuhrat keltirdi. "Ey nozanin", "Bu Gulshan", "Ofarin", "Ming qadam" singari qo'shiqlar o'sha davrning mahsulidir. 1939-yilda ko'plab san'atkorlar qatori Jo'raxon Sultonovga "O'zbekiston xalq hofizi" faxriy unvoni beriladi. Urush yillarida qilgan mehnatlari "Naylayin", "Otga mindim" qo'shiqlari "Vatan o'g'lonlari" va "Frontga sovg'a" filmlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Temur Mahmudovning hikoya qilishicha, Muqimiy teatrida ishlab yurgan kezlarida Jo'raxon Sultonov "Tohir va Zuhra" spektaklida Parpi hofiz rolini ijro etadilar. Shu ko'rinishda, to'ylarimizda mashhur bo'lib ketgan "To'ylar muborak" ashulasini Mashrab so'ziga Jo'raxon Sultonov bastalagan qo'shiqni aytishi kerak. Jo'raxon Sultonovning teatrdagi keyingi o'ynagan ro'li "Nurxon" spektaklidagi ashula muallimi bo'ldi. Bu obraz ham hofiz talqinida o'ziga xos sahnaviy yangiliklar, improvizatsiya bilan, qiziqarli muloqotlar va qo'shiqlar jo'rligida mahorat bilan ijro etildi. Teatrda kechirilgan yillar mahorat maktabi bo'ldi desak, xato bo'lmaydi. San'atkorlar hayoti hamisha ma'rifiy suhbat va muloqotlarga, ibratli bahs va tortishuvlarga boy bo'lishi ajablanarli emas.

Hofizning toshkentlik farzandlari yangi davrning o'qimishli, or-nomusli, ma'naviyati yuksak kishilari bo'lib ulg'ayishdi. To'ng'ich qiz Nodiraxon Toshkent davlat meditsina institutini tugatib, Olmazor tumanidagi 33-tibbiyot poliklinikasida uzoq yillar terapevt-vrach lavozimida ishlab nafaqaga chiqdi. Ikkinchi qizi Nozimaxon ham opasi Nodiraxon yo'lidan borib shifokor bo'ldi. Uchinchi qizi Naimaxon – Toshkent davlat avtoyo'l institutini tugatib, ko'p yillar Toshkent shahar avtoyo'l vazirligi idoralarida muhandis bo'lib ishladi. Nihoyat, hofizning suyukli o'g'li Muhammadrahimxon-Toshkent davlat universitetining filologiya fakulgetida tahsil olib, dastlab "Mehnat" nashriyotida musahhah, so'ng noshir va muharrir lavozimlarida mehnat qildi. Muhammadrahimxonning o'g'il-qizlari Na- zokatxon, Ra'noxon, Barnoxon, Donoxon va Azamatjon Jo'raxonovlar-buyuk hofiz Jo'raxon Sultonovning nevaralari, san'atga baxshida umrning merosxo'rlari va davomchilaridir.

Urushdan so'ng avval estrada teatrida, keyinchalik 1958-yilgacha respublika radiosida yakkaxon ashulachi bo'lib ishladi. O'sha davrlarda uning dasturidan "Chor zarb", "Chaman yalla", "Ohkim", "Sayri gulzor", "Besh parda suvora", "Sodirxon ushshoqi", "Savti suvora", "Guluzorim qani", "Xanuz", "Bo'lmish", "Patnisaki chorgoh", "Ey, dilbari janonim", "Bormikan", "Bog'aro", "Sitara" singari asosan o'zi bastalagan mashhur ashulalar o'rin olgan edi. Jo'raxon Sultonov juda ko'p shogirdlar yetishtirdi. Barcha san'atkorlar uni e'zozlab «Usta» deb atashardi. Davralarda o'zining bilimdonligi, zukkoligi, so'zga chechanligi, shirin askiyalari bilan hammani o'ziga jalb qila olardi. Hofiz qayerda bo'lmasin, hamisha o'zi tug'ilib o'sgan ona shahri Marg'ilonga intilib yashadi. Qattiq betob bo'lib, to'ridan go'ri yaqinligini sezgan og'ir kunlarda ham Marg'ilonga qaytib, qarindosh-urug'lari, bolalikdan tepishib katta bo'lgan oshna-og'aynilarini ko'rib qolish harakatini qildi.

Lekin dard uning majolini sug'urib olib, to'shakka mixlab qo'ydi. Toshkentdagi Temir yo'l stasionari kasalxonasida tajribali shifokorlar nazorati ostida davolanayotganiga qaramasdan, kasallikning yon bergisi kelmasdi. Sog'ligining yaxshi tomonga emas, balki yomon tomonga qarab og'ib borayotganini ich-ichidan sezib turgan hofiz vaqtni g'animat bilib, Marg'ilonga ketish tadorigini ko'ra boshladi. Hol-ahvolini so'rab keluvchilar safi tinay demas, ular mashhur hofizning haqiqiy ahvolini o'z ko'zlari bilan ko'rishni, unga ikki og'iz bo'lsa ham tasalli berib, yupatishni istashardi.

Toshkentda qiladigan boshqa ishi qolmaganini sezib turgan hofiz Marg'ilonga olib ketishlarini iltimos qildi. Bu iltimosi o'rinli bo'lib, bu kunlarga kelib, o'z oyoqlari bilan qadam bosib yura olmaydigan ahvolga kelib qolgan edi. Hofiz Marg'ilonga yetib kelib, bir kungina nafas rostlaganday bo'ldi, xolos. Ikkinchi, uchinchi kunlari Toshkentda qilgan odatini yana takrorlab, shaharlik birodarlarini, ahli mahallani, katta-kichik san'atkorlarni hovlisiga chorlab, osh tortdi. Barcha yig'ilganlardan rozi-rizolik so'radi. Toshkentdan kelganining roppa-rosa yettinchi kunida, ya'ni 1965-yilning 19-oktyabr sanasida kech soat 23 larda buyuk hofizning yuragi urishdan to'xtadi. 20-oktyabr kechga yaqin minglab odamlar ishtirokida janoza namozi o'qildi. Ta'ziyaga shunchalik ko'p xalq to'plandiki, ta'ziyani yetti joyda o'qishga to'g'ri keldi. Vasiyatiga ko'ra, hofiz Marg'ilon shahrining eng qadimiy va ko'hna qabristoni bo'lmish Mashad oromgohiga, yana ham aniqrog'i, sevimli shogirdi Ma'murjon Uzoqov abadiy uyquda yotgan joyning janubi g'arbidagi osuda maskanga dafn etildi.<sup>4</sup>

Ustozning nomlariga o'zlari yashagan ko'cha, musiqa maktabi qo'yilgan. Marg'ilon shahrida yosh xonandalarning Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov nomidagi respublika ko'rik-tanlovi o'tkazib turiladi. 2001- yilda Prezidentimizning Farmoni bilan ustozga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berildi. Bu ishlarning barchasi xalqimizning ulug' san'atkoriga bo'lgan ehtiromi va hurmatidan dalolatdir. Jo'raxon Sultonov ijrolari O'zbekiston radiosi va San'atshunoslik instituti fonojamg'armalarida saqlanmoqda, bir necha gramplastinka, audiokasseta va kompakt disklarga yozilgan. Vafotidan so'ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan. 1997 yildan Marg'ilonda Sultonov va Mamurjon Uzoqovlar nomidagi Respublika xonandalar tanlovi o'tkazilmoqda.

Xulosa qilib aytish lozimki, O'zbekiston xalq hofizi, xushovoz xonanda, mohir sozanda, yetuk bastakor Jo'raxon Sultonov o'z faoliyati jarayonida o'zbek mumtoz musiqa ijodiyoti va ijrochiligi ravnaqiga munosib hissa qo'shgan o'zbek zabardast san'atkorlarining yorqin namoyandalaridan biri sifatida doimo e'zozdadir. U o'zbek mumtoz musiqasi bilimdoni sifatida xalq san'atkorlari orasida "Ustozi kull" darajasiga erishgan benazir ustoz, musiqa merosimizni 60 dan ortiq turli noyob asarlar bilan boyitgan ajoyib bastakor hamda ijrochilik maktabini yaratib, bir qator

---

<sup>4</sup> O'zbekiston xalq sozandalari 2-kitob. K.olimboyeva, T.Yo'lboshboyeva, M.Axmedov, T.Mirzayev. T 1974

munosib shogirdlar tarbiyalagan ustoz sifatida zamon hofizlari uchun ibrat namunasi bo'lib qolaveradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xofizlik san'ati. (O'quv uslubiy qo'llanma) "Musiqqa" nashriyoti. T 2007
2. Jo'raxon Sultonov: "Ko'kardi chaman, gulzorim qani?". Sultonali Mannopov, Nbijon Soliyev. T 2019
3. O'zbekiston xalq sozandalari 2-kitob. K.olimboyeva, T.Yo'lboşboyeva, M.Axmedov, T.Mirzayev. T 1974
4. M.Achildieva, N.Butabayeva, M Nasirova A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643 1-6 bet
5. Achildiyeva M. Ikromova F. The ballet "Tomaris" in the culture of Uzbek ballet plase and significance Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
6. Achildiyeva M. Ikromova F. "O'zbek musiqqa san'atida maqomning o'rni" Proceedings of Global Technovation 2<sup>nd</sup> International Multidisciplinary Scientific Conferense . London 2020 90-93 bet
7. Achildiyeva M. Xojimamatov A. Yuldasheva D. Ikromova F. "Uyghur Folk Singing Genre" Turkish Online Journal of Qualitative (TOJQI) Inquiry (Turkiya 2021) 3509-3517 bet (SCOPUS)
8. M.Achildiyeva 2021 Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heristage Annals of Romanian Society for Cyell Biology 25(4) 9092-9100
9. Achildiyeva M, Xojimamatov A, Ikromova F (2022) Shashmaqom saboqlari: "Navo" maqomi xususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH 11(01) 55-58
10. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL "An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal" 2 (4) 460-463
11. Xojimamatov A. Nazarxodjayeva R. Korrupsiya – asr vabosi
12. Ikromova F. O'ZBEKISTON XALQ HOFIZI OCHILXON OTAXONOVNING HAYOT YO'LI CHIZGILARI. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE Vol. 1 No. 3 (2022): 151-156
13. Achildiyeva M, Ikromova F REYNGOLD GLIER VA TOLIBJON SODIQOVNING «LAYLI VA MAJNUN» OPERASIDA MAQOM YO'LLARINING QO'LLANILISHI UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 23-28 bet

14. Xojimamatov A, Ikromova F. MUSIQIY SAHNAVIY ASARLARNING IJROCHILIK MUAMMOLARI (O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODI MISOLIDA) UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet

15. Ikromova F. SHASHMAQOMDA TURKUM ASAR TARONALARI UIF 2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet.

16. Hojimatov Azimjon CHANG CHOLG'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI Oriental Renaissance: Innovative, yeducational, natural and social sciencyes VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 Sciyentific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (265-275 bet).

17. Muyassarxon Achildiyeva SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUYe 10/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (344-352 bet).

18. Xojimamatov Azimjon, Muhammadjonova Mohinur. VIKTOR ALEKSANDROVICH USPENSKIYNING IJODIY YO'LI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 587-591 bet.

19. Ачилдиева Муяссархон, Аткиёева Рухшона. АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САНЪАТНИНГ ТУТГАН ЎРНИ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 578-583 bet.

20. Achildiyeva M, Ikromova F "The third renaissance towards ascending" EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL "An open access, peer reviewed multidisciplinary journal" (Spain 2021 sentyabr) ISSN (E): 2660-5562 17-20 bet

21. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan Botir Umidjonov Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022) ISSN 2795-7683 54-56 bet

22. Hojimatov A Ikromova F A Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of S.I.Taneev Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022) ISSN 2795-7683 87-89 bet